



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC.....	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	116
Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНА.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabolova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafruz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	



KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI

Elbekov Jasur Ergash o'g'li
Bank-moliya akademiyasi magistranti
E-mail: jasur4345588@mail.ru
ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-0575-2818>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda kreditlash va mikroqarz berish tizimining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Kredit va mikroqarzlarning iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishdagi ahamiyati, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda kredit portfeli va mikroqarzlarning hajmida kuzatilgan o'zgarishlar tahlil qilinib, ularning ishlab chiqarish hajmi, bandlik va iqtisodiy o'sishga ta'siri baholangan. Tadqiqot natijalari asosida kreditlash va mikroqarz berish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kreditlash, mikroqarz, mikrokredit, tijorat banklari, kichik biznes, tadbirkorlik, ishlab chiqarish, iqtisodiy o'sish, moliyaviy inklyuzivlik, kredit portfeli.

Abstract. This article analyzes the development trends of the lending and microfinance system in Uzbekistan. The role of loans and microloans in financing the real sector of the economy and supporting small businesses and private entrepreneurship is examined. The study evaluates changes in credit portfolio and microloan volumes in recent years and assesses their impact on production growth, employment, and economic development. Based on the findings, scientific and practical recommendations for improving the lending and microfinance system are proposed.

Keywords: lending, microfinance, microloans, commercial banks, small business, entrepreneurship, production, economic growth, financial inclusion, credit portfolio.

Аннотация. В данной статье проанализированы тенденции развития системы кредитования и микрозаймов в Узбекистане. Рассмотрена роль кредитов и микрозаймов в финансировании реального сектора экономики, поддержке малого бизнеса и частного предпринимательства. Исследованы изменения объёмов кредитного портфеля и микрозаймов за последние годы, а также дана оценка их влияния на объёмы производства, занятость населения и экономический рост. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию системы кредитования и микрофинансирования.

Ключевые слова: кредитование, микрозаймы, микрокредитование, коммерческие банки, малый бизнес, предпринимательство, производство, экономический рост, финансовая инклюзия, кредитный портфель.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va aholi farovonligini oshirishda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bank kreditlari va mikroqarzlarning iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri bo'lib, investitsion faollikni rag'batlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim o'rin tutadi. Shu bois kreditlash va mikroqarz berish tizimining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tijorat banklari kapitallashuvini oshirish, raqamli bank xizmatlarini joriy etish, mikromoliya tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish va aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada kredit portfeli va mikroqarzlarning hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda.



Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarga yetib borish imkoniyatlariga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, mikroqarzarlar kichik biznes subyektlari uchun muhim moliyaviy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Mikroqarzarlar orqali tadbirkorlar aylanma mablag'larni to'ldirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Shu bilan birga, kreditlash va mikroqarz berish tizimini yanada takomillashtirish zarur bo'lgan ayrim yo'nalishlar mavjud. Jumladan, kredit resurslarining ayrim tarmoqlar bo'yicha muvozanatli taqsimlanishini ta'minlash zarurati, garov ta'minoti bilan bog'liq cheklovlar, raqamli moliyaviy xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda qarz oluvchilarning moliyaviy savodxonlik darajasi bilan bog'liq muammolar mazkur sohani yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreditlash va mikroqarz berish tizimi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim moliyaviy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda kredit resurslarining iqtisodiyotning real sektoriga ta'siri keng o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan F. Mishkin [1] kredit bozorining iqtisodiy o'sishdagi ahamiyatini tadqiq qilib, samarali moliyaviy vositachilik tizimi investitsiyalar hajmini oshirishi va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bank tizimining rivojlanganlik darajasi iqtisodiyotning real sektorida ishlab chiqarish faolligining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

B. Armendáriz va J. Morduch [2] mikroqarzlarning iqtisodiy ahamiyatini tadqiq qilib, mikroqarzarlar kam ta'minlangan aholi qatlamlari va kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga yetib borish imkoniyatlarini kengaytirishini asoslab bergan. Mualliflarning ta'kidlashicha, mikromoliyalashtirish tizimi nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, balki aholi bandligini ta'minlash va mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish vazifasini ham bajaradi.

J. Ledgerwood [3] o'zining mikromoliya sohasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida mikroqarzlarning kichik tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rnini baholab, ularning iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatib bergan. Uning fikricha, mikromoliya xizmatlari aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy faollikni oshiradi.

R. Levine [4] moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, kredit resurslarining samarali taqsimlanishi investitsiyalar o'sishi va mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qilishini ta'kidlagan. Uning tadqiqotlarida moliyaviy sektorning rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim shartlaridan biri sifatida baholanadi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham kreditlash va mikromoliyalashtirish masalalari bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda tijorat banklari kredit siyosati, kredit portfelini boshqarish, kichik biznesni moliyalashtirish va mikromoliya xizmatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda kredit resurslaridan samarali foydalanish, kredit risklarini boshqarish va moliyaviy inklyuzivlikni oshirish bo'yicha muhim xulosalar shakllantirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kreditlash va mikroqarz berish tizimining rivojlanish tendensiyalarini baholash hamda ularning ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta'sirini aniqlash maqsadida iqtisodiy tadqiqotlarning zamonaviy usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy nazariya, moliya va bank ishi sohasidagi mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, Milliy statistika qo'mitasi materiallari hamda xalqaro moliya institutlari hisobotlari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil, guruhlash va umumlashtirish usullaridan keng foydalanildi. Mazkur usullar kreditlash va mikroqarz berish tizimining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, ularning ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash hamda tadqiqot natijalari bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Iqtisodiy-statistik tahlil usuli yordamida 2020–2025-yillarda O'zbekistonda kredit portfeli, mikroqarzarlar va mikrokreditlar hajmi dinamikasi baholandi. Qiyosiy tahlil orqali kreditlash va mikroqarz berish ko'rsatkichlarining yillar kesimidagi o'zgarishlari hamda ularning iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Mazkur holat ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi hamda kreditlash va mikroqarz berish tizimining ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta'sirini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqarish zarurligini ko'rsatadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda kreditlash tizimining institutsional kengayishi so'nggi yillarda moliyaviy sektorni isloh qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq ravishda amalga oshirildi. Bank tizimini liberallashtirish, davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish va xususiy kapitalni jalb etish siyosati kredit institutlarining soni va faollik doirasini kengaytirishga xizmat qildi. Institutsional kengayish, avvalo, bank tizimi tarkibining diversifikatsiyasida namoyon bo'ldi. Davlat banklari bilan bir qatorda xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar faoliyati faollashdi. Bu raqobat muhitini kuchaytirib, kredit mahsulotlari turini ko'paytirish va xizmatlar sifatini oshirishga olib keldi.

Kredit infratuzilmasining rivojlanishi ham institutsional kengayishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kredit byurolari, garov reyestrlari, reyting agentliklari va axborot almashinuvi tizimlarining takomillashtirilishi kredit risklarini baholash samaradorligini oshirdi. Bu esa kredit portfeli sifatini yaxshilashga va muammoli kreditlar ulushini cheklashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, bank xizmatlarining hududiy qamrovi kengayib, filiallar va mini-banklar tarmog'i orqali qishloq va chekka hududlarda kreditlash imkoniyatlari oshirildi. Raqamli bank xizmatlari va onlayn kreditlash platformalarining joriy etilishi institutsional kengayishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.



1-rasm. Kredit tizimi tarkibi¹

1-rasmda aks ettirilgan kredit tizimi mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash mexanizmini ifodalaydi. Tizimning markazida kredit munosabatlari turib, u turli iqtisodiy subyektlarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini ehtiyoj sezayotgan subyektlarga yo'naltirish vazifasini bajaradi.

Bank krediti kredit tizimining asosiy va eng yirik bo'g'ini hisoblanadi. U tijorat banklari orqali yuridik va jismoniy shaxslarga taqdim etiladigan kreditlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tarmoqda ipoteka kreditlari aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilsa, iste'mol kreditlari aholining xarid qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Tijorat banklari kreditlari esa tadbirkorlik subyektlarining investitsion va aylanma mablag'larga bo'lgan talabini qoplashga qaratilgan.

Nobank kredit tashkilotlari kredit bozorida raqobat muhitini shakllantirib, moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytiradi. Mikrokredit tashkilotlari aholi va kichik biznes subyektlariga kichik hajmdagi qarz mablag'larini taqdim etadi. Lombard xizmatlari tezkor moliyalashtirish imkonini bersa, lizing operatsiyalari korxonalarining asosiy vositalarni xarid qilish xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.

Davlat krediti davlatning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish vositalaridan biri hisoblanadi. Davlat qarzlari va obligatsiyalari orqali budget taqchilligini moliyalashtirish, yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish hamda


¹ **Manba:** <https://www.imf.org>. International Monetary Fund (IMF) asosida muallif ishlanmasi.



iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkoniyati yaratiladi. Bu yo'nalish davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro kredit mamlakat iqtisodiyotini global moliya bozorlari bilan bog'lovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratiladigan kreditlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Xorijiy banklar va investorlar ishtirokidagi kreditlash esa mamlakatga xorijiy kapital oqimini jalb qilish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, kredit tizimi tarkibi iqtisodiyotning barcha subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi o'zaro bog'liq elementlar majmuasidan iborat. Bunda bank krediti yetakchi o'rinni egallasa-da, nobank kredit tashkilotlari, davlat krediti va xalqaro kredit institutlarining ahamiyati ham yil sayin ortib bormoqda. Zamonaviy sharoitda mazkur tizimni raqamlashtirish, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va moliyaviy xizmatlar ommabopligini kengaytirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi.



2-rasm. Hududlar kesimida mikroqarzlarning ulushi²

2-rasmda hududlar kesimida ajratilgan kredit mablag'lari taqsimoti aks ettirilgan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, Toshkent shahrida kreditlar hajmi 20 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, keyingi o'rinlarda Farg'ona viloyati (16 trln so'm), Samarqand viloyati (15 trln so'm) va Andijon viloyati (14 trln so'm) qayd etilgan. Shuningdek, Buxoro viloyatida mazkur ko'rsatkich 12 trln so'mni, Qashqadaryo viloyatida 11 trln so'mni tashkil etgan. Boshqa hududlar hissasiga esa jami 12 trln so'mlik kredit mablag'lari to'g'ri kelmoqda. Bu esa kredit resurslarining asosiy qismi iqtisodiy faollik yuqori bo'lgan hududlarga yo'naltirilayotganligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, Toshkent shahri va yirik sanoat hamda tadbirkorlik markazlari hisoblangan Farg'ona, Samarqand va Andijon viloyatlarida kreditlash faolligi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Umuman olganda, rasm ma'lumotlari kredit resurslarining hududlar bo'yicha taqsimlanishida muayyan tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bois iqtisodiy jihatdan nisbatan kam rivojlangan hududlarda ham ishlab chiqarish va tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish orqali hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklarni qisqartirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mikroqarzlarning taqsimoti mintaqaviy iqtisodiy faollik darajasi bilan bevosita bog'liq. Ya'ni iqtisodiy markazlar va sanoatlashgan hududlarda mikroqarzlarga bo'lgan talab yuqoriroq, chekka hududlarda esa nisbatan pastroq. Shu bilan birga, o'sish sur'atlarining 18,4% dan 10,5% gacha pasayishi iqtisodiy nazariyada "kredit siklining sekinlashuv bosqichi" (deceleration phase of credit cycle) sifatida talqin qilinadi. Bu bosqichda kredit ekspansiyasining miqdoriy o'sishidan ko'ra uning sifati, risk darajasi va qaytarilish ehtimoli ustuvor ahamiyat kasb etadi.

2 Manba: Viloyatlar kesimida iqtisodiy faollik va moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari asosida muallif ishlanmasi.



Makroiqtisodiy jihatdan ushbu tendensiya quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Markaziy bankning pul-kredit siyosatini normallashtirishga qaratilgan choralari;
- inflyatsiya bosimlarini cheklash maqsadida foiz stavkalarining barqarorlashuvi;
- bank tizimida prudensial regulyatsiya va kapital yetarliligi talablarining kuchayishi;
- kredit bozorining institutsional to'yinish (market saturation) holatiga yaqinlashuvi.

Ilmiy adabiyotlarda (Borio, 2014; Claessens, 2018) bunday holat kredit tizimining "sifatga yo'naltirilgan transformatsiyasi" sifatida baholanadi. Ya'ni banklar endilikda kredit hajmini oshirishdan ko'ra, riskka to'g'rilangan daromadlilik (risk-adjusted return) ko'rsatkichini optimallashtirishga e'tibor qaratmoqda.

Natijada kredit portfeli o'sish sur'atining bosqichma-bosqich barqarorlashuvi bank tizimining sifat jihatidan rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Bu bosqichda asosiy strategik yo'nalishlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- kredit risklarini baholashning ilg'or modellarini joriy etish;
- tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyani optimallashtirish;
- IFRS 9 standarti asosida kutilgan kredit yo'qotishlarini (ECL) boshqarish;
- kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlarini mustahkamlash.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mikroqarzarlar, ayniqsa, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilgan aholini moliyalashtirishning muhim manbasiga aylangan. Natijada mikroqarzarlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, aylanma mablag'larni to'ldirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bozorning jadal rivojlanishi kredit risklarini baholash va qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini tahlil qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini kuchaytiradi.

3-rasm. Kreditlash va mikroqarzar berish tizimining rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili³

Kўrsatkich	01.02.2024 й., млрд сўм	01.02.2025 й., млрд сўм	Ўсиш, %
Жами кредитлар	469 600	533 989	↑ 14%
Жисмоний шахсларга кредитлар	149 894	179 852	↑ 20%
Ипотека кредитлари	58 737	68 750	↑ 17%
Микроқарзлар	25 155	43 986	↑ 75%
Истеъмол кредитлари	45 039	40 284	↓ -11%
Таълим кредитлари	4 763	5 882	↑ 23%
Тadbirkorlikni rivojlantirish кредитлари	15 985	19 457	↑ 22%
Юридик шахсларга кредитлар	319 706	354 137	↑ 11%
Микрокредитлар	5 429	17 194	↑ 217%

Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda kreditlash tizimi tarkibida mikroqarzar va mikro kredit segmentining jadal rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda jami kreditlar hajmi 469,6 trln so'mdan 533,9 trln so'mgacha o'sib, 14 foizlik o'sish qayd etilgan bo'lsa, mikroqarzarlar hajmi 25,2 trln so'mdan 44,0 trln so'mgacha ortib, 75 foizlik o'sishni namoyon etgan. Bu ko'rsatkich kredit bozorining boshqa segmentlariga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi.

³ *Manba:* O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. «Kreditlar turlari bo'yicha ma'lumotlar» (Information on the types of loans), 2025-yil 25 fevral. Muallif tomonidan qayta ishlangan.



Olib borilgan tahlillar natijasida O'zbekistonda kreditlash va mikroqarz berish tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanayotganligi aniqlandi. Mamlakatda bank tizimini liberallashtirish, mikromoliya bozorini rivojlantirish va raqamli moliyaviy xizmatlarni keng joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, 2025-yil 1-fevral holatiga mikroqarzlarning hajmining 75 foizga, mikroreditlarning hajmining esa 217 foizga o'sganligi mazkur moliyaviy instrumentlarga bo'lgan talab yuqori ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mikroqarzlarning aholi, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga yetib borishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, aylanma mablag'larni to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq garov talablarining yuqoriligi, moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi, ayrim hududlarda moliyaviy xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish zarurati va raqamli kreditlashni huquqiy tartibga solishdagi ayrim masalalar sohaning mavjud salohiyatidan yanada samarali foydalanish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot natijalari mikroqarzlarning hajmining tez sur'atlarda o'sib borayotganligini ko'rsatmoqda. Biroq mikroqarz mablag'larining muayyan qismi iste'mol maqsadlariga yo'naltirilayotgani ularning iqtisodiy samaradorligini cheklamoqda. Shu munosabat bilan ishlab chiqarish, qayta ishlash, xizmat ko'rsatish va eksportga yo'naltirilgan loyihalar uchun imtiyozli foiz stavkalari va uzoqroq qaytarish muddatlarini nazarda tutuvchi differensial mikroqarzlarning tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Natijada mikroqarz mablag'larining real sektorga yo'nalishi kuchayib, yangi ish o'rinlari yaratilishi, mahalliy ishlab chiqarish hajmining oshishi va iqtisodiyotda multiplikativ samaraning kuchayishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'RB-580-son, 2019-yil 5-noyabr // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-4581969>
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni, O'RB-582-son, 2019-yil 11-noyabr // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4590452>
3. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'RB-765-son, 2022-yil 20-aprel // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5972411>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni, 2020-yil 12-may // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-4811025>
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyati bo'yicha statistik byulletenlar. — Toshkent, 2020–2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Kredit turlari bo'yicha ma'lumotlar. — Toshkent, 2025.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. — Toshkent, 2020–2025.
8. Mishkin F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. — 13th ed. — New York: Pearson Education, 2022.
9. Saunders A., Cornett M. M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. — 10th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2021.
10. Borio C. The Financial Cycle and Macroeconomics: What Have We Learnt? // Journal of Banking & Finance. — 2014. — Vol. 45. — P. 182–198.
11. Claessens S., Kose M. A. Frontiers of Macrofinancial Linkages. — BIS Papers No. 95. — Basel: Bank for International Settlements, 2018.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>